

## МАКТАБГАЧА ТА'ЛИМ TASHKILOTIDA IKKINCHI TIL O'QITISHNING SAMARALI METODLARI VA DIDAKTIK O'YINLAR

*Mahliyo Xolova Po'lotovna*

*Buxoro viloyati Peshko' tumani*

*30-davlat maktabgacha ta'lim tashkiloti*

*Metodist va til o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada maktabgacha ta'lim tarbiyalanuvchilarining ikkinchi tili faoliyatiga qiziqishlarini uyg'otish va rivojlantirish maqsadida qo'llanuvchi didaktik o'yinlar materiallari mazmuni va tarbiyalanuvchilardagi ikkinchi tilda gapira olish qobiliyatlarini rivojlantirish ahamiyati haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** chet tili, malaka, sifat, texnologiya, psixanalitika, audio yozuv, pedagogik mahorat, ta'lim sifati.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-sentabrdagi PQ-3305-son "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi qarori hamda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016-yil 29-dekabrda PQ-2707-son "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy informatsion kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda maktabgacha ta'lim tizimida ma'nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxsni tarbiyalash, ta'lim-tarbiya jarayoniga pedagogik va zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishdan iborat.

Bugungi kunda respublikamizda maktabgacha ta'lim sohasida me'yoriy huquqiy bazani tubdan takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalar, ilmiy ishlanmalar va texnologiyalarni maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatiga integratsiya qilish, maktabgacha yoshdagi bolalarni erta rivojlantirish sohasidagi ilmiy, innovatsion pedagogik faoliyatni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan konseptual islohotlar amalga oshirilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy majlisda so'zlagan Murojaatnomasida Maktabgacha ta'lim sohasida kelgusida olib boriladigan keng islohotlar haqida to'xtalib o'tildi. "Birinchidan, bola dunyoga kelganidan boshlab, unda aynan maktabgacha bo'lgan yoshda aqliy faollik oshadi, axloqiy-estetik va jismoniy xislatlar shakllanadi. Shu bois ham, kelgusi yillarda maktabgacha ta'lim sohasini rivojlantirish borasidagi strategik maqsadimiz - ijtimoiy ahvolidan qat'iy nazar, maktabgacha yoshidagi har bir bolani ushbu ta'lim yo'nalishi bilan to'liq; qamrab olish uchun zarur sharoitlarni yaratishdan iborat"<sup>1</sup>.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning kelgusida maktab bilimini o'zlashtirishi, maktabga moslashuvining yengil o'tishi, bola shaxsida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarning oldini olish, qiyinchiliklarni bartaraf etishni amalga oshirishda bolalarning maktabgacha ta'lim tashkilotiga jalb etilganligi, ta'limga qamralganligi

<sup>1</sup> Саидов А. СОҒЛОМ ВА БАРКАМОЛ ШАХСНИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОЙПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. Special issue. – С. 262-266.

alohida ahamiyatga egadir. Maktabgacha yoshdagi bolalarda harakatning o'sishiga o'yinning ta'siri haqida gap borganda, avvalo, shuni aytish kerakki, birinchidan, o'yinni tashkil qilishning o'ziyoq mazkur yoshdagi bolaning harakatini o'stirish va takomillashtirish uchun eng qulay shart-sharoit yaratadi. Ikkinchidan, o'yinning bola harakatiga ta'sir etishining sababi va xususiyati shundaki, harakatning murakkab ko'nikmalarini subyekt aynan o'yin paytida emas, balki bevosita mashg'ulot orqali o'zlashtiradi. Uchinchidan, o'yinning keyinchalik takomillashuvi barcha jarayonlar uchun eng qulay shart-sharoitlarni vujudga keltiradi. Shu boisdan o'yin faoliyati xatti-harakatni amalga oshirish vositasidan bolaning faolligini ta'minlovchi mustaqil maqsadga aylanadi. Negaki, u (o'yin) subyekt (jonot) ongining dastlabki obyekt darajasiga o'sib o'tadi. Maktabgacha yoshdagi bola muayyan xususiyatga ega bo'lgan rolni tanlaydi, shu bilan birga u yoki bu personajga xos qat'iy yurish-turishni ongli ravishda ijro etishga intiladi. Shunday ekan, o'yin mazkur bola uchun eng zarur faoliyatga aylana boradi va yangi shakldagi harakatlarni takomillashtirish, ularni anglagan holda esga tushirish ehtimoli yaqqol voqelikka aylana boshlaydi. Mazkur harakatlarni egallash bolada jismoniy mashqlarni ongli ravishda bajarish imkoniyatini vujudga keltiradi<sup>2</sup>.

Didaktika kechiktirmay o'rganilishi zarur bo'lgan muammolardan biri, ta'limni samarador loyihalash masalasi. Loyihalash o'quv materiallarini o'rganish va mustahkamlash, takrorlash va amaliyotga tadbiiq qilish umumiyashtirish va nazorat qilish jarayonlari bilan qanchalik uzviy bog'liq bo'lsa, ta'lim jarayonining samaradorligi shuncha oshadi. Shuning uchun ham, ta'lim jarayonining yo'nalishlarini emas, balki uning ta'lim qirrasini samarador loyihalashga ehtiyojmand yo'nalishlardan biri samarali didaktik o'yinlar to'plami tayyorlashdir. Mazkur murakkab vazifani bajarishda ingliz tili darsini bolalarga didaktik o'yinlar vositasida tashkillashtirish asosiy omil hisoblanadi<sup>3</sup>.

Bolalarda o'yin orqali diqqat xotira va idrokni qiyinchiliklarsiz shakllantirish mumkin. Chunki bola o'yin jarayonida o'zini erkin his etadi. O'yin o'ynayotgan paytidagi ma'lumotlarni ham bajonidil qabul qiladi. Ya'ni o'yin faoliyati orqali beriladigan ma'lumotlar bolalar xotirasidan muommolarsiz o'rin oladi. Bu o'rinda pedagogik, texnologik va fiziologik omillarga tayangan holda ikkinchi tilni o'rganish samaralar garovidir. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari o'yinlar jarayonida ingliz tilini o'rganar ekan, albatta ma'lumotlarning ko'rgazmalilik tamoyillariga amal qilish maqsadga muvofiq. Maktabgacha yoshdagi bolalarda xorijiy til bilishi jarayonlari ijtimoiy ta'sirlar asosida shakllanadi. Ularning diqqati, xotirasi, aqliy faoliyati va muloqotga kirishishi, ko'p hollarda tashqi munosabatlar va o'yin faoliyatining ta'sirchanligiga bog'liq ekanligi olimlar tomonidan taqiqlanadi. Bolaning ona tilini egallash jarayonlari ustida kuzatishlar olib borar ekan, bolalar o'yin jarayonida o'z faoliyatlarini mantiqiy xronologik izchillikda bayon qilishi, harakatlarini sharhlash ehtiyojini his qilishlarining guvohi bo'ldi. Bu kuzatishlar faoliyat hamda harakatlarni sharhlash ehtiyojini his qilishining guvohi bo'ldi. Bu kuzatishlar faoliyat hamda harakatlarni shu tarzda bayon qilish va sharhlash tilini

<sup>2</sup> Bolangiz maktabga tayyorga tayyormi». T., Ma'rifat-madadkor.2002

<sup>3</sup> Sabitova, T. (2021). THE ROLE OF WORKS OF ORAL FOLK ART IN ENHANCING THE SPIRITUALITY OF YOUTH. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(9), 77-88.

o'rgatish zaminida yotadi. Shuning uchun ham ularni chet tillarni o'qitishga asos qilib olish kerak, degan xulosaga olib keladi. Bolaning 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bog'cha yoshi bolalik davrining katta bir qismini tashkil etadi. Asosan mana shu davrdan boshlab bolaning mustaqil faoliyatlari, nutqi rivojlanadi, xorijiy tilni tez o'rganish xususiyatlari takomillashadi, hamda shaxsiy individual xususiyatlari, insoniy fazilatlari tarkib topa boshlaydi. Shuningdek, ona tilini va xorijiy tilni parallel ravishda o'zlashtirgan bolalarda idrok etish, taxmin qilish, tushunish, qiyoslash kabi ko'nikma, malakalar hosil bo'ladi. Ta'lim – tarbiya ta'siri bilan birga bolalar psixik xususiyatlarining taraqqiyotiga ularning faoliyati rolini ham hisobga olish zarurdir. Chunki bola tarbiyaning passiv obyektigina bo'lib qolmasdan, balki o'z aktiv faoliyatlari bilan o'ziga ya'ni o'zining psixik taraqqiyotiga faol ta'sir qilib turadigan mavjudotdir<sup>4</sup>.

Tarbiya bolaning faoliyatini har doim to'g'ri tashkil qilib, yo'lga solib tursa undagi mavjud sifatlar faoliyatining har xil turlarida o'yin, mehnat, o'qish namayon bo'lib mustahkamlana boradi. Bola psixikasi o'yin, o'qish, o'rganish, mehnat va turli ijtimoiy faoliyat jarayonlarida taraqqiy qiladi. Faoliyatning bu turlari bolaning o'sishi va yosh xususiyatlariga mos ravishda o'zgarib, biri ikkinchisi bilan almashib turadi. Masalan: bog'chagacha va maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o'yindir. Chunki o'yin bola tabiatining asosiy xususiyatlari hisoblanadi. Bola o'yin orqali atrofdagi hayotni va kishilar o'rtasidagi turli munosabatlarni o'rgana boshlaydi. Bundan tashqari bu yoshda bolaning mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishning dastlabki poydevori qo'yiladi. Bola bu yoshda moddiy borliq go'zalliklarini his etish, go'zallik hamda nafosatdan zavqlana olish, milliy urf-odatlarini o'ziga singdirish orqali hamda rioya qilish ko'nikmalarini ham shakllantira boshlaydi. Vaholanki, bu yoshda bola yetarli so'z boyligiga ega bo'lib, unga xorijiy tilni o'rganishga imkoniyat bo'ladi. Bola predmetlarning rangi, shakli va kattaligini, ularning makonda joylashishini bilish bilan birga, ularni taqqoslay oladi. Bu yoshda normal rivojlanayotgan bola rasm va suratlar real hayotni aks ettirayotganligini yaxshi tushunadi. Shuning uchun ham surat va rasmlarda nimalar aks etganini real hayotga taqqoslagan holda bilishga harakat qiladi. Bola rasmlarda atrofdagi narsalarning kichiklashtirib tasvirlanganligi anglay biladi. Bu tasvirlar bolalarda estetik badiiy didni rivojlantiradi. Bu jarayonni bolalar bilan o'yin sifatida tashkillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Shuning uchun ham o'yinlar umuminsoniy madaniyatning qimmatli manbasi va uni yuksaltirish vositasi hisoblanadi. Hech qanday faoliyat shaklida inson o'zining ruhiy fiziologik va aqliy imkoniyatlarini o'yin jarayonidagi kabi yorqin tarzda namoyon eta olmaydi. Shuning uchun ham o'yinlar bolaning hayotiy mavqelarini o'zlashtiruvchi pedagogik hodisa hisoblanadi. O'yinlar bola hayotining ajralmas qismi hisoblanar ekan, ulardan maqsadli foydalanish o'z samarasini bermay qolmaydi. Didaktik o'yinlarning o'z tabiatiga ko'ra "Ijtimoiy ahamiyat kasb etishini ta'kidlagan holda o'yinlarda ijtimoiy munosabatlar arifmetikasi" deya ta'rif berildi va ularning pedagogik mohiyatini batafsil ochib berishga muvaffaq bo'lindi. Chunki o'yin o'z mohiyatiga ko'ra bolaning ko'z o'ngida jamiyatdan ijtimoiy vaziyatlar va kattalar

<sup>4</sup> V.I.Loginova, P.G.Samorukovalar taxriri ostida «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi».«O'qituvchi»T.,1991y.

hayotini yaqqol gavdalantirishga xizmat qiladi. O'yinlar muayyan faoliyat shakli bo'lib, bolaning ruhiy holatlari va bilish ko'nikmalari rivojlanish shakli hayotning muayyan bosqichida vujudga keladi. Bolalarni muloqotga chorlashning asosiy, o'ziga xos shakli sifatida alohida pedagogik ahamiyatga ega.

### **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, har bir maktabgacha ta'lim muassasi hozirgi innovatsion rivojlanish davrida muassasada tarbiyalanuvchi bolalarni chet tilini o'rgatishga chuqurroq e'tibor qaratib ularga ta'lim beruvchi tarbiyachilarni pedagogik mahorat va ta'lim berish uchun metodik asoslarni mahorat darslari orqali o'rgatishni tashkil etish lozim. Respublikamixda maktabgacha ta'lim jarayonida xorijiy tillardan og'zaki nutqni o'stirishning zamonaviy metodikalariga berilgan katta ahamiyat, hamda ularni o'rganish uchun zarur bo'lgan zamonaviy o'qitish usullarini kengroq joriy qilish lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Саидов А. СОҒЛОМ ВА БАРКАМОЛ ШАХСИ ТАРБИЯЛАШНИНГ ИЖТИМОЙ ПСИХОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ //Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS). – 2021. – Т. 1. – №. Special issue. – С. 262-266.
2. Bolangiz maktabga tayyorga tayyormi». Т., Ма'rifat-madadkor.2002
3. Sabitova, T. (2021). THE ROLE OF WORKS OF ORAL FOLK ART IN ENHANCING THE SPIRITUALITY OF YOUTH. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(9), 77-88.
4. V.I.Loginova, P.G.Samorukovalar taxriri ostida «Maktabgacha tarbiya pedagogikasi». «O'qituvchi»Т.,1991y.